

BOSHLANG'ICH TA'LIMDA DIDAKTIK O'YINLARDAN FOYDALANISH

Xasanov Ergash Shonazarovich.

Angren Universiteti. "Pedagogika va psixologiya" kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qitishda didaktik o'yin faoliyatining ahamiyati va o'quvchi shaxsini tarbiyalash hamda rivojlantirishda tutgan o'rni haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: O'qituvchi maxorati, innovatsion qobiliyat, bilim va ko'nikmalarni mustahkamlashga yo'naltirilgan o'yinlar, o'quv materialini bilan tanishtiruvchi o'yinlar, aqliy rivojlanishni rag'batlantiruvchi o'yinlar, harakatli o'yinlar, ijodiy o'yinlar.

O'zbekiston o'zining mustaqilligiga erishgach, o'sib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama barkamol shaxs etib tarbiyalash masalasi davlat miqyosidagi ustuvor masala etib belgilandi, bu yo'nalishda respublika Prezidentining ta'lim tizimini rivojlantirishga oid ko'plab qarorlari qabul qilinib, muhim islohotlar amalga oshirib kelinmoqda. Yoshlarni o'qitish va tarbiyalash kabi murakkab masalalarni muvoffaqiyatli hal qilish ko'p jihatdan o'qituvchining g'oyaviy e'tiqodi, professional mahorati, bilimdonligi, kasbiy madaniyati hamda innovatsion qobiliyatiga bog'liqdir. Mahoratli o'qituvchi dars jarayoniga kutilmagan innovatsiyalarni olib kiradi, bu esa o'quvchilarda darsga bo'lgan qiziqishni oshiradi. Shunday innovatsiyalardan biri dars jarayoniga didaktik o'yin faoliyatini tadbiiq etishdir. Chunki ta'lim jarayonida qo'llanadigan didaktik o'yin faoliyati, avvalo o'quvchilarni bilim, ko'nikma va malakalarni oson va qiziqib o'rganishlari uchun imkoniyat yaratadi hamda o'qituvchining ham professional o'sishiga va ma'naviy rivojlanishiga yordam beradi. Buyuk rus pedagogi B.A.Suxomlinskiy ta'kidlaganidek- "O'yinsiz to'la-to'kis aqliy



rivojlanishni tasavvur etib bo'lmaydi. O'yin bu- yirik va jo'shqin chashma. U orqali o'quvchining ma'naviy dunyosiga jonli tushunchalar, tasavvurlar oqimi quyiladi. O'yin harakatchanlik va izlanuvchanlik gulxanini yoquvchi uchqundur". Darhaqiqat, boshlang'ich sinflarda ta'lim jarayonida qo'llanadigan didaktik o'yinlar o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan qiziqishini oshirish hamda dars jarayonini jonli va qiziqarli o'tkazishga yordam beradi. Bizga yaxshi ma'lumki, insonning asosiy faoliyat turi uch ko'rinishda: mehnat faoliyati, o'yin faoliyati, o'quv faoliyatida shakllanadi. Ularning barchasi o'zaro bog'liq holda sodir bo'ladi. Chunki bolalarning maktabdagi o'quv materiallari asosidagi aqliy harakatlarining shakllanish qonuniyatlari o'yin faoliyatlarida tarkib topadi. Ta'lim jarayonida didaktik o'yinli texnologiyalar didaktik o'yinli dars shaklida qo'llaniladi. Ushbu darslarda o'quvchilarning bilim olish jarayoni o'yin faoliyati o'rqali uyg'unlashtiriladi. Shu sababli o'quvchilarning ta'lim olish faoliyati o'yin faoliyati bilan uyg'unlashgan darslar- didaktik o'yinli darslar deb ataladi. Bu o'yinlar ishtirokchilarda aqliy-jismoniy, axloqiy, psixologik, estetik, badiiy tadbirkorlik, mehnat va boshqa ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi. Didaktik o'yinlar-muayyan ta'limiy maqsadlarga erishishga, mavzularni yanada mustahkamlashga, chuqurlashtirishga qaratilgan bo'lib, har bir didaktik o'yinni o'tkazishda biror bir vazifa maqsad qilib olinadi. Didaktik o'yinlar yordamida o'quvchilar mavzuga yanada ko'proq tushunadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun didaktik o'yinlar bilim olishning faollashtiruvchi turlaridan biri bo'lib, o'quvchilarda mustaqil tafakkur, og'zaki va yozma nutq, jamoa bo'lib ishlash ko'nikmalarini shakllantiradi. O'yinning maqsadi- ta'lim olishga, fanga, kitobga qiziqish uyg'otish va diqqatini ta'lim jarayoniga qaratish hamda mustaqil fikrlashga o'rgatishdir. Ta'lim jarayonida qo'llanadigan didaktik o'yin faoliyati bolalarda bilish jarayoniga jonli qiziqish uyg'otadi va yangi ma'lumotlarni qabul qilishga yordam beradi. Didaktik o'yinlar quyidagi asosiy turlarga bo'linadi:



1. Bilim va ko'nikmalarni mustahkamlashga yo'naltirilgan o'yinlar-bu o'yinlar o'quvchilarning darsda o'rganilgan bilimlarini mustahkamlash uchun ishlatiladi:

a) "Savol-javob" o'yini: O'qituvchi savol beradi, o'quvchilar javob beradilar.

b) "Top" o'yini: Muayyan mavzu asosida topshiriqlar bajarish.

v) "To'g'ri-Notog'ri" o'yini: Berilgan fikrlarni to'g'ri yoki noto'g'ri deb belgilash.

2. O'quv materialini bilan tanishtiruvchi o'yinlar-bu o'yinlar orqali yangi mavzuni tushuntirish jarayoni qiziqarli tarzda amalga oshiriladi:

a) Rol o'ynash o'yinlari: Hayotiy vaziyatlarni jonlantirish (masalan, "Do'konda xarid qilish").

b) "Topishmoq va jumboq" o'yini: Yangi mavzuni tushuntirishda topishmoq va jumboqlar ishlatiladi.

3. Aqliy rivojlanishni rag'batlantiruvchi o'yinlar-bunday o'yinlar o'quvchilarning fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi:

a) "So'zdan so'z yasash" o'yini: bir so'zdan yangi so'zlar hosil qilish.

b) "Matematik masala topish" o'yini: berilgan masalani yechish va yangi masala o'ylab topish.

4. Harakatli o'yinlar- Harakatli o'yinlar o'quvchilarni faollashtirish va ularni jismoniy faoliyatga undash uchun ishlatiladi:

a) "Tez ayt, top" o'yini: bir nechta savolga tez va to'g'ri javob berish (Blits savollardan foydalanish).

b) "Kim ko'p eslab qoladi" o'yini: o'tilgan mavzu bo'yicha ma'lumotlarni eslashga qaratilgan.



5. Ijodiy o'yinlar-Bu o'yinlar o'quvchilarning ijodkorlik va o'z-o'zini ifoda etish qobiliyatini rivojlantiradi:

a)Rasm chizish: O'tilgan mavzu bo'yicha rasm yaratish.

b)Hikoya to'qish: Berilgan mavzu bo'yicha qisqa hikoya yoki ertak yaratish.

Ta'lim jarayonida qo'llanadigan didaktik o'yin faoliyatini tashkil etishda quyidagi muhim jihatlarga e'tibor qaratish lozim:

1.O'yin maqsadi o'quvchilarni o'rganishga jalb qilish bo'lishi kerak.

2.O'yin qoidalari tushunarli va sodda bo'lishi lozim.

3.O'yin davomida har bir o'quvchi faol ishtirok etishini ta'minlash muhim

O'quv jarayonida didaktik o'yinlarni qo'llash, uning qay tarzda o'tishi tayyorgarlikka, materiallar tayyorlashga, o'yin qoidalariga rioya qilish va o'yinni to'g'ri tashkil etishga bog'liqdir. Avvalo, o'quvchilarga o'yin qoidalari tanishtirilishi, uning mohiyati tushuntirilishi lozim. So'ngra o'quvchilar o'z rollari bilan o'yinda ishtirok etadilar. Shunisi diqqatga sazovorki, o'quvchilar mustaqil ravishda turli vazifalarni bajaradilar, o'zlarini bir necha kasblarda sinab ko'radilar,muammolarni hal qilishda yana nimalarga e'tibor berish lozimligini anglab yetadilar. Didaktik o'yin faoliyatini tashkil qilishda avvalo o'qituvchi tomonidan mavzuni e'lon qilish, reja tuzish, o'yin shartlari bilan oldindan tanishtirish, kerakli manbaalarni ko'rib chiqish, ko'rilayotgan muammo ko'lami, rollarni taqsimlash, konsultatsiyalar uyushtirish muhim hisoblanadi. Ta'lim jarayonida didaktik o'yinlarni qo'llash- darsni jihozlash, texnika vositalaridan, rasm va jadvallardan unumli foydalanish hamda o'quvchilarning faolligi dars mashg'ulotining samarali o'tishida muhim ahamiyatga ega.Bolalarga har bir o'yinni o'rgatishda muayyan ta'limiy maqsad nazarda tutiladi. O'yinning eng muhim ahamiyati ham ana shundadir.Didaktik o'yinlar o'qitish vazifasiga xizmat qiladi va qiziqarli,maroqli, tushunarli darajada olib boriladi. Bolalar g'olib chiqish maqsadida jonu dili bilan mashq qiladilar, berilgan har bir



topshiriqni albatta bajarishga odatlanib,ularda didaktik topshiriqlarni bajarishga bo'lgan qiziqish orta boradi.

Didaktik o'yinlar har bir darsning maqsadi va vazifalarini yaxshiroq tushunib olishga yordam beradi hamda ta'limning ko'rgazmaliligini, o'qituvchining nutqini va bolalar harakatini o'z ichiga oladi, buning natijasida idrokda (ko'rish, eshitish, teri sezgisi belgilarida) uyg'unlik paydo bo'ladi. Bu esa o'qituvchining aytganlarini bolalarning aqlan o'ylab olishiga va o'sha aytilganlarni ifodalab berishlariga, ya'ni didaktik o'yinlar qoidalarini o'quvchilarning o'zlari bajarishlariga imkon beradi.Dars mashg'uloti davomida o'qituvchini tanbeh berishga majbur etadigan bolalar ham uchrab turadi. Biroq o'yin o'tkazilayotgan vaqtda bunday bolalarning xulq-atvori tamoman o'zgarib ketadi. Ular darhol o'zlarini tutib oladilar, o'qituvchining o'yin qoidalarini ko'rsatib berishini kutib o'tirmasdan qoidalarni o'zlari mustaqil bajaradilar. Didaktik o'yinlar jarayonida bolalarda uyushqoqlik, vaqtni iloji boricha tejay bilish xislatlari tarbiyalanadi.Tajribalar shuni ko'rsatadiki, didaktik o'yinlar bolalarda do'stlik, birodarlik, mehnatkashlik hissini tarbiyalash va taraqqiy ettirishga yordam beradi. Didaktik o'yinlar o'tkazilayotganda bolalar o'z o'rtoqlari va o'z sinflarining sharafi uchun kurashadilar. Didaktik o'yinlar ijodiy shaxsni tarbiyalashga yordam beradi, chunki har bir o'yin, uning har bir takrorlanishi topshiriqni bajarishga yangicha munosabatda bo'lishni talab qiladi, uni hal qilish zarurati esa ijodiy izlanishlarni keltirib chiqaradi. Ta'lim jarayonida tashkil qilinadigan didaktik o'yinlar orqali o'quvchilarda tirishqoqlik, matonatlilik, boshlangan ishni oxirigacha yetkaza bilish singari eng kerakli irodaviy sifatlar tarbiyalanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdunazarova Z. Boshlang'ich sinflarda didaktik o'yinlarning ta'limiy tarbiyaviy va rivojlantiruvchi ahamiyati. Ta'lim va rivojlanish taxlili,ilmiy jurnal-2022 yil



2.G'afforova T, Nurullayeva Sh, Haydarova O. Boshlang'ich sinflar uchun ona tili va o'qishdan didaktik materiallar.Toshkent: "Ilm ziyo".2004yil.

3.Xudayqulova F. Bo'lajak pedagoglarda kasbiy kompetentlikni shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari. Academic research in educational sciences, 2021yil.

4.Nishonova D, Abdunazarova Z. Boshlang'ich ta'lim sifat samaradorligini oshirishda zamonaviy yondashuv.//Interpretation and researches//. 2023 yil.

